

BMTdagi tashabbuslar mintaqada ekologik barqarorlikka erishish garovidir



Mazkur tashabbuslar qatorida global iqlim o'zgarishlari va ekologik xavfsizlikni ta'minlash borasida fikr bildirar ekan, tinchlik, xavfsizlik va barqaror taraqqiyotga transmilliy tahdidlar tobora kuchayotganligi, iqlim jadal o'zgarayotganligi borasida o'z xavotirlarini bayon etib, O'zbekiston tomonidan iqlim o'zgarishlariga qarshi kurash, atrof-muhit va bio xilma-xillikni muhofaza qilish, tiklanadigan energiya manbalariga o'tish masalalarida ko'rilayotgan chora-tadbirlarga alohida to'xtaldi. Masalan:

- Ekologiya borasidagi choralarning mantiqiy davomi sifatida 2022 yili Orolbo'yi hududida, Nukus shahrida «yashil» energetika bo'yicha BMT bilan hamkorlikda yuqori darajadagi xalqaro forum o'tkazish;
- BMT shafeligida global ekologik siyosatning ustuvor yo'nalishlarini batafsil muhokama qilish maqsadida 2023 yilda O'zbekistonda Atrof-muhit bo'yicha BMTning yuqori darajadagi Oltinchi Assambleyasini o'tkazish;

Yuqoridagi tashabbuslardan asosiy maqsad sifatida "Assambleya ishtirokchilari Orol dengizining qurishi natijasida yuzaga kelgan, ekologik ofat markazi bo'lgan, Orolbo'yi mintaqasidagi og'ir vaziyat bilan bevosita tanishish va zarur xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bundan tashqari, atrof-muhit bo'yicha Assambleyada Birlashgan Millatlar Tashkilotining yangi ekologik siyosati asoslarini tashkil etishga qaratilgan Butunjahon ekologiya Xartiyasini ishlab chiqish tashabbusini ilgari surmoqchimiz", - dedi O'zbekiston yetakchisi.

Chunki bugungi kunda yer sayyorasida ekologik muvozanat izdan chiqib borayotganligi ilmiy jihatdan yanada aniq bo'lib bormoqda.

Insoniyatning taraqqiyotga erishish yo'lida tabiatga nisbatan xo'jasizlarcha munosabatda bo'lishi atrof-muhitdagi muvozanatning izdan chiqishiga olib keldi. Buning salbiy oqibatlarini dunyoning turli mintaqalarida tez-tez yuz berayotgan suv toshqinlari, to'fonlar, o'rmon yong'inlari, qurg'oqchilik, muzliklarning erishi, qush va hayvon turlarining yo'qolib borayotgani, qish kuzatilmaydigan joylarda kutilmaganda qor yog'ishi, aksincha, doimo sovuq ob-havo hukm suradigan o'lkalarda haroratning

iliq kelishi va yana shunga o'xshash ko'plab anomal hodisalar misolida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Mutaxassislarning fikricha, iqlimdagi o'zgarishlar dunyoning barcha okean va qit'alaridagi tabiiy tizimlarda sezilarli o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Kelgusi o'n yillikdan boshlab fasllar bilan bog'liq noodatiy jarayonlar boshlanishi mumkin. Masalan, juda qattiq sovuq hukm suradigan qish o'rnini birdaniga jazirama yoz egallashi hech gap emas. Hatto bir kecha-kunduz oralig'ida issiq va sovuq haroratning almashinuvi tez-tez ro'y berishi ehtimolga yaqin. Boshqacharoq izohlansa, yil davomida faqat qish va yoz fasli hukm sursa, ne ajab. Buning oqibatida havo tarkibida atrof-muhitga, inson salomatligiga salbiy ta'sir qiluvchi moddalar miqdori, ummon suvlarining esa kislotalilik darajasi ortishi taxmin qilinmoqda.

2016 yildan 2035 yilga qadar sayyoramizda harorat taxminan 0,7 daraja, 2081 yilga borib esa, 1986 — 2005 yillardagi ko'rsatkichga nisbatan qiyoslaganda, qariyb 2 daraja ko'tarilishi kutilmoqda. Natijada doimiy muzliklarning erish jarayoni tezlashib, okeanlar sathi yuksaladi. Xususan, 2081 — 2100 yillarda ummon suvlari sathi 1986 — 2010 yillardagiga nisbatan 0,58 dan 0,98 metrgacha ko'tariladi. Bu esa, o'z navbatida, toshqinlar ko'payishiga, yer ko'chkilari va eroziyaga, baliqlar hamda quruqlikdagi jonzotlarning pala-partish migratsiyasiga sabab bo'ladi. Iqlim o'zgarishi oziq-ovqat xavfsizligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. Hisob-kitoblardan kelib chiqib, 2050 yilga borib, makkajo'xori, guruch va bug'doy yetishtirish hajmi 25 foizgacha qisqarishi bashorat qilinmoqda.

Biz xam shu o'rinda gapimizni muxtasar qilib nega davlatimiz rahbari tomonidan BMT minbarida turib bu kabi konstruktiv tashabbuslar o'rtaga tashlanayotganligini sabablarini tushunib yetish qiyin emas. Umuman olganda globall iqlim o'zgarishlarini oldini olish, Orol muammosini hal etish, mintaqada ekologik barqarorlikni ta'minlash borasida davlatimiz tomonidan bir qancha amaliy ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Biroq, bu borada ishlarni yanada jadallashtirish, tabiiy energiya manbalarini xajmini oshirish, sanoatda tabiatga kam chiqindi chiqaradigan texnologiyalarni ko'lamini yanada oshirish, fuqarolar ongida ekologik madaniyatni shakllantirish, mamlakatning har bir fuqarosida ekologik mas'uliyatni kuchaytirish kabi ishlarni kun tartibidagi masala sifatida belgilashimiz muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy
Majlisi Senati a'zosi, senator

A.SANGINOV